



INSON HUQUQLARI – JAMIYAT
TARAQQIYOTINING POYDEVORI **4-bet**

IJTIMOY TARMOQLAR DAVRIDA
MA'NAVY IMMUNITET MASALASI **6-bet**

GADJETLAR VA ULARNI
ZARARLI OQIBATLARI **7-bet**

ILM, AXLOQ VA
IJOD UYG'UNLIGI **8-bet**

CHAQIRILUVCHILAR
DIQQATIGA!!! **8-bet**



QIBRAYDAN XALQARO MAYDONLAR SARI

5-bet ➡



MARDI-MAYDONIM, BOBUR...

3-bet ➡



MUAMMO BILAN KELIB, YECHIM BILAN KETISHDI

4-bet ➡

BOLALAR SAVODI YO'LIDAGI 35 YILLIK UMR

5-bet ➡



**2026-YILDA HAM
BIZ BILAN BIRGA BO'LING!**

Aziz mushtariylar! Sizlarga 2026-yil uchun
"QIBRAY SADOSI" gazetasiga obuna davom etayotganini
MA'LUM QILAMIZ!
Obuna "QIBRAY SADOSI" gazetasini tahririyatida qabul qilinadi.

Obuna bo'lish uchun o'zingizga qulay usulni tanlang. Obunani:
✓ naqd pul; ✓ pul o'tkazish;
✓ plastik kartochkalar orqali amalga oshirish mumkin.

Obuna bahosi – 420 000 so'm.

Manzil: Qibray shaharchasi, Zebuniso ko'chasi, 12-uy. Mo'ljal: "O'z sanoatqurilishbank" Qibray filiali

MAQSAD BILAN MUSTAHKAMLANGAN HARAKAT ORZULARNI HAQIQATGA AYLANTIRADI

Har bir davlatning kelajagi, iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi iqtidorli yoshlarga, ularning bilimi, salohiyatini rivojlantirish va yuzaga chiqarishiga bevosita bog'liq. Bular yosh bo'lishiga qaramay, turli sohalarida salmoqli yutuqlarga erishayotgan qobiliyatli, ijodkor va g'ayratli avloddir. Yoshlar erishayotgan muvaffaqiyatlar nafaqat ularning shaxsiy yutug'i, balki yurt kelajagiga qo'shgan hissasi hamdir. Ularning iste'dodini e'tirof etish va qo'llab-quvvatlash bilan birga, ularning yanada o'sishi uchun sharoit yaratish ham muhim ahamiyatga ega.



Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, yoshlarni qo'llab-quvvatlash – O'zbekistonda yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratishga intilayotgan mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev siyosatining muhim yo'nalishidir. Darhaqiqat, ta'lim, madaniyat, sport va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va dasturlar tufayli mamlakatimiz yoshlari kasbiy va shaxsiy o'sish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, bugungi yoshlarga yaratib berilgan sharoit – bu ertangi qudratli O'zbekistonning mustahkam poydevoridir.

Ustoz–shogird tizimi doirasida iqtidorli talabalar bilan ishlayotgan rahbar sifatida yoshlar salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashish va ularning yutuqlarini kuzatish imkoniyatiga ega ekanimdan mamnunman. Prezidentimizning “yoshlarning shijoati va intilishini ko'rib, yonib turgan ko'zlariga boqib, o'zimga bitmas-tuganmas kuch olaman”, degan fikrlarini yodga olar ekanman, shuni ta'kidlash joizki, yoshlar o'z oldilariga aniq maqsad qo'yib, unga qat'iyat bilan intilganlarida, nafaqat o'zlari, balki atrofida qilargalarga ham kuch va g'ayrat bag'ishlaydi. Ularning yonib turgan ko'zlari esa ichki ishonch, orzu va intilishlarning yorqin ifodasi bo'lib, ustozlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi hamda ularni o'z mehnatini yanada fidoyilik bilan davom ettirishga undaydi.

2023-yilda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 210-sonli davlat umumta'lim maktabini a'lo baholar bilan muvaffaqiyatli tamomlagan Ulug'bek Mirxosilov bugungi kunda Toshkent davlat agrar universitetining “Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar” fakulteti Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi sifatida tahsil olmoqda. U o'zining bilimga chanqoqligi, intiluvchanligi va mas'uliyati bilan iqtidorli

yoshlar safidan munosib o'rin egallagan.

Mirxosilov Ulug'bek Alisher o'g'li 2006-yil 9-yanvarda Toshkent viloyati Qibray tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Uning oilasida ta'lim va mehnatga yuksak ehtirom, ezgu niyatlar hamda insonparvarlik qadriyatlarini yetakchi o'rin egallaydi. Shogirdimning e'tirof etishicha, Ulug'bek go'daklik chog'ida noq buvijonisi – oliy toifali shifokor Guli Axatovnaning mehrli parvarishi va oqilona tarbiyasi bag'rida voyaga yetgan bo'lib, aynan shu muhit uning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Talabam buni faxr va minnatdorlik bilan shunday ifodalaydi – bugun erishgan har bir yutug'imning asl qudrati bu buvijonimdir, qo'lga kiritgan mukofotlarimning barchasi, avvalo, u kishiga tegishlidir!

Oilada singdirilgan tarbiya Ulug'bekda vaqtini qadrlash va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirdi. U o'qish, sport, ijtimoiy faollik hamda shaxsiy hayotni uyg'un holda olib borishga intiladi. Belgilangan rejalariga qat'iy amal qilgan holda, ajratilgan har bir daqiqadan samarali foydalanishni o'z hayotiy mezoniga aylantirgan.

Ulug'bek o'qishining ilk bosqichlaridanoq yuqori akademik natijalarni namoyon etib, yetakchilik qobiliyatlari bilan ajralib kelmoqda. U nafaqat ta'lim jarayonida, balki ma'naviy-axloqiy, madaniy, sport hamda ijtimoiy faoliyatlarda ham faol ishtirok etib, salmoqli yutuqlarga erishgan. Xususan, sportning stol tennisi turiga bo'lgan qiziqishi va doimiy mashg'ulotlari natijasida viloyat hamda respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda bir qator sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgani e'tiborga molikdir.

Ulug'bekning muhim yutuqlaridan yana biri – ona tilidan tashqari rus va ingliz tillarini mukammal darajada egallagani, shuningdek, yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni

o'zlashtirish bilan birga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muloqot madaniyatini oshirish va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan turli o'quv kurslarida muntazam tahsil olayotganidir. Jumladan, “Amaliy matematika”, “Ingliz tili”, “Moliyaviy hisob”, “IT va dasturlash” yo'nalishlari bo'yicha o'qib, tegishli sertifikatlariga ega bo'lib kelmoqda.

Shu bilan birga, Ulug'bek Mirxosilov ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashish bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunga qadar uning chop etilgan ilmiy ishlari soni 25 tadan ortib, ular agroiqtisodiyot sohasidagi dolzarb ilmiy masalalarni yoritishga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotlar milliy va xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilib, ularning natijalari yetakchi mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan konferensiya hamda seminar-anjumanlarda muntazam taqdim etib kelinmoqda.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan Toshkent davlat agrar universiteti talabalari uchun ta'sis etilgan “Erkin Shayxov” nomidagi universitet ichki stipendiyasi tanlovi g'olibi bo'lishi Ulug'bekning shaxsiy yutuqlarini e'tirof etish barobarida, ustoz–shogird tizimining ahamiyati va samaradorligini ham yaqqol namoyon etdi. Shuningdek, uning muhim yutuqlaridan yana biri – MDH miqyosida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi” nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilib, Scientific Academy ilm-ma'rifat markazi tomonidan “Yuksak ehtirom” xalqaro esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlanganidir. Ushbu mukofot uning tanlagan kasbiy yo'nalishiga bo'lgan chuqur qiziqishini yana bir bor tasdiqladi.

Va nihoyat, Ulug'bek erishgan yuksak yutuqlardan yana biri u 2025-2026 o'quv yilida Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibiga aylandi. Bu e'tirof uning bilimga chanqoqligi, izchil mehnati va yuksak intilishlarining mantiqiy natijasi bo'lib, o'zbek ma'naviyati va ilm-fani tarixida beqiyos o'rin tutgan buyuk alloma – Alisher Navoiy nomi bilan bog'langan mukofotga sazovor bo'lish har qanday yosh uchun ulkan sharaf hisoblanadi.

O'rta asrlar Sharq uyg'onish davrining ulug' siymosi Alisher Navoiy asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki uning bebaho ilmiy va adabiy merosi bugungi kungacha chuqur o'rganilib, keng targ'ib etib kelinmoqda. Navoiy ijodiy merosi jahon madaniyatining betakror durdonalaridan biri sanalib, uning asarlari dunyoning yuzlab tillariga tarjima qilingan va turli xalqlarning ma'naviy xazinasiga aylangan.

Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona fondida buyuk mutafakkirning asarlari, u haqidagi ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar jamlanib, ularni o'rganish uchun keng va qulay imkoniyatlar yaratilgan. Bu esa Navoiyning faqat o'z davrida emas, balki bugungi kunda ham jahon ilmiy hamjamiyatining diqqat markazida ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida, Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzo hukmronligi davrida tavallud topgan. Zamondoshlari uni ko'pincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb ataganlar. “Nizomiddin” – din va diyonat nizomi, donishmandlik timsoli bo'lsa, “mir” so'zi amirlik maqomini anglatadi. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad Temuriylar saroyining nufuzli amaldorlaridan bo'lgan, onasi esa amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi edi. Alisher Navoiyning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh bo'lgan bo'lib, bu holat buyuk shoirning temuriylar xonadoniga



yaqinligini ko'rsatadi. Navoiy bu sharaflı muhit bilan bog'liqligidan o'z asarlarida faxr bilan so'z yuritadi, uning tarjimai holiga oid ko'plab lavhalar ham aynan ijodida o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy davlat va jamiyat hayotida ham faol ishtirok etib, 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir lavozimlarida faoliyat yuritgan, 1487–1488-yillarda esa Astrobod viloyatiga hokimlik qilgan. Husayn Boyqaro uni o'ziga nihoyatda yaqin tutib, muhim masalalarda doimo u bilan maslahatlashgan va yuksak qadrlagan. Garchi ayrim davrlarda ular o'rtasida sovuqlik yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu ikki buyuk siymo hamkorligi zamon sinovlaridan munosib o'tib, keyingi avlodlar uchun ibratli namuna bo'lib qoldi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson timsolini, yuksak insonparvarlik va ma'naviy kamolot g'oyalarini ulug'lab, mumtoz adabiyot tarixida asrlar osha qadri so'nmaydigan, bitmas-tuganmas ma'naviy xazinani meros qilib qoldirdi. Uning boy ijodiy merosi bugun ham nafaqat adabiyotshunoslar va olimlar, balki keng jamoatchilik, ayniqsa, yosh avlod uchun beqiyos tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Navoiy shaxsi va asarlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning izchil davom etayotgani, ularga bo'lgan qiziqishning tobora ortib borayotgani bu bebaho merosning zamonlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmasligini yaqqol tasdiqlaydi. Bugun Alisher Navoiy merosi butun insoniyatga tegishli bebaho ma'naviy xazina sifatida e'tirof etiladi. Dunyo ahli uning asarlarini mutolaa qilmoqda, chuqur o'rganmoqda va ilhom manbai sifatida qabul qilmoqda. Shunday buyuk zot nomi bilan atalgan davlat stipendiyasiga sazovor bo'lish Ulug'bekning ilm-fan va ma'naviyat yo'lidagi sa'y-harakatlari naqadar yuksak ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Aynan shunday buyuk ma'naviy an'analar ruhida kamol topayotgan Ulug'bek Mirxosilov singari iqtidorli, maqsadli va fidoyi yoshlarning bugungi yutuqlari kelajakda yanada ulkan marralarga eltuvchi mustahkam poydevor vazifasini o'taydi, deb ishonch bilan aytish mumkin. Ularning bilimga, izlanishga va yuksak natijalarga intilishi mamlakatimiz ilm-fani va jamiyat taraqqiyoti uchun ishonchli tayanch bo'lib, kelajak avlodlar uchun yorqin ibrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

I.S. OCHILOV,

*Toshkent davlat agrar universiteti
“Agroiqtisodiyot” kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

МАРДИ-МАЙДОНИМ, БОБУР...

Президентимизнинг “Буюк шоир ва олим, машхур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 540 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори шундай сўзлар билан бошланади: “Жаҳон тарихида ўчмас из қолдирган бетакрор сиймолардан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобур буюк шоир, қомусий олим, давлат арбоби ва моҳир саркарда сифатида бутун дунёда маълум ва машхурдир. Унинг беқиёс илмий-иждодий мероси нафақат миллий маданиятимиз ва халқимиз адабий-эстетик тафаккурининг шаклланишида, балки жаҳон адабиёти, илм-фани ва давлатчилиги тарихида алоҳида ўринга эга”.

Бобур яратган асарлар ўзининг кўп қирралиги, тарихий, адабий-бадий аҳамияти билан ўзига хосдир. Умрининг катта қисмини жанг майдонида ўтказган бобокалонимизнинг сермахсул ҳамда сермазмун ижоди шу ўтган асрлар мобайнида бутун жаҳон китобхонларини ҳайратга солиб келади.

Бобур асосан туркий ва форс тилларида ижод қилган. Аммо шеър-ғазаллари дунёнинг 100 дан ошиқ тилларига таржима қилинган. Унинг ижодидаги руҳиятнинг ўзига хос манзаралари, табиатнинг гўзал тасвири, мураккаб туйғуларнинг содда ва теран баёни бошқа ҳеч битта шоирда кўзга ташланмайди. У нафақат жанг майдонида рақибларига, балки қалам тебратишда ҳам марди майдон эди. Шундан, ижоди давомида ўз камчиликларини яшириб ўтирмайди. Ўзини буюк қилиб кўрсатишга уринмайди. Ҳаёти давомида йўл қўйган хатоларини рўй-рост тан ола билади.

Масалан “Бобурнома” асарида у эришган ғалабалари билан бирга, аламли мағлубиятлари борасида ҳам кенг тўхталган. Мағлубиятларга сабаб бўлган ўз камчиликларини бирма-бир санаб ўтган. Бу қадар ноёб самимият эса, ҳазрат бобокалонимизнинг ҳақиқатда буюк инсонлигидан далолат.

Мирзо Бобурдан айниқса ватанпарварликни, она юртни қандай севишни ўргансак арзийди. У катта салтанатга асос солган шоҳаншоҳ эди. Кўплаб инсонларнинг кўнглини забт этган бетакрор шоир эди. Шунга қарамай, ватанига интизор ўтди. Бу интизорлик изтирови ёзган асарларида, дардли-дардли сатрларида акс этди. Яъни, ўзининг шохлигидан ҳам, шоирлигидан ҳам ватани тупроғини азизроқ билди. Шох ва шоир бобомизнинг расмини чизган рассомлар бошини эгик, кўзларини маъёс ҳолатда тасвирлаши бежиз эмас...

Бугунги кунга қадар фақат ўзбек



оилаларидагина эмас, балки бутун жаҳонда ота-оналар ўз фарзандларига унинг исмини қўйиб келишади. Фарзандларининг Бобур каби буюк инсон бўлишини орзу қилишади. Демак, у миллатимизнинг бебаҳо жавоҳири. Бу жавоҳирни асрашнинг энг катта йўли: унинг ижодини, шахсини кўпроқ ўрганиш, ёш авлод орасида тарғиб қилишдир.

Маҳмуда ИСАБОВЕВА

ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ



Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитаси, Тошкент вилояти ҳокимлиги, Қибрай туман ҳокимлиги ва бошқа ташкилотлар ҳамкорлигида "Жаҳолатга қарши маърифат билан" шиори остида диний бағрикенглик ва маънавий баркамоллик тарғибот тадбирлари бўлиб ўтмоқда.

Туман ҳокимлигида Дин ишлари бўйича қўмитаси раиси маслаҳатчиси Илҳом Маърупов томонидан сўнгги йилларда юртимизда барча соҳаларда бўлгани каби диний соҳадаги амалга оширилаётган ислохотлар ва эркинликлар ҳақида маълумотлар бериб берилмоқда.

Тадбир давомида ислом динини ниқоб қилиб террорчилик, қўпоровчилик ҳаракатлари содир этаётган манқурт кимсалар томонидан уюштирилаётган хунрезликлар, юртимиздаги диний тушунчага эга бўлмаган фуқароларнинг

билиб-билмай турли оқимларга қўшилиб қолаётганлиги, энг ачинарлиси, булар орасида ёшларнинг ҳам кўплиги, ёшлар онгига турли ёт ғояларни сингдириш орқали уларни ўз таъсирига оғдираётганлиги ачинарли ҳол эканлиги, уларнинг аксариятига ижтимоий тармоқлар орқали намойиш этилаётган, тақиқланган видео ва аудио материалларни кузатиш оқибаотида юзага келаётганлиги аниқ маълумот ва таҳлиллар асосида келтириб ўтилди. Тадбирда ислом динининг тинчлик дини эканлиги ва унинг асл

моҳияти ҳамда ислом динида мутаассиблик ва жаҳолатнинг салбий оқибатлари мисоллар орқали келтириб берилмоқда.

Шунингдек, ҳозирги кунда, айрим ота-оналарнинг фарзандлари таълим-тарбиясига безътиборлиги сабаб, уларнинг етарли дунёвий ва диний билимларга эга бўлмай турли зид ғоялар таъсирига тушиб, жиноят кўчасига кириб қолишларида асосий омил бўлиб қолаётганлиги, бугунги кунимиздаги хавфли жиҳат-лардан бири эканлиги тўғрисида ахбо-ротлар берилмоқда.

Тарғибот тадбирлари барча соҳа вакиллари учун навбат билан ўтказилмоқда.

Қибрай тумани ҳокимлиги
Ахборот хизмати

Улардан бири – Бобур.
Темурийлар даври
Ренессансининг ёрқин
вакили Заҳириддин
Муҳаммад Бобур нафақат
буюк саркарда, балки
ватанпарвар шоир,
серқирра истеъдод
соҳиби, юксак фазилатли
инсон бўлган.

ТАРИХИМИЗДА
ВАТАНПАРВАР
САРКАРДАЛАР
Кўп бўлган

Ўз даврида унинг шоҳ асари
“Вақойи” ёки “Бобурнома” номи билан
машхур китобининг мўътабар
қўлёзмасини битган котиб
муаллифнинг ижобий хусусиятларини
“айтиб ва ёзиб тугатиш маҳол”, дея
қайд этиб, “Асли зотида мана бу
саккиз сифат мужассам эди:
биринчиси – юксак орзу-ниятга эга,
иккинчиси – ҳиммати баланд,
учинчиси – юртни эгаллаш
(қайтариш), тўртинчиси – ватанини
сақлаш, бешинчиси – юртни
бошқариш, олтинчиси – халқига
мурувватли бўлиш, еттинчиси –
лашқарга ғамхўрлик, саккизинчиси –
адолатли бўлиш” эканини
таъкидлаган.

Бу саккиз сифат ичида
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг
юксак орзу-ниятли экани, юрт равнақи
учун қайғуриши, халқи ва лашқарига
ғамхўрлик қилиши ҳамда адолатли
муносабати алоҳида кўрсатилгани
бежиз эмас. У Шимолий Ҳиндистонда
улкан салтанат асосчиси Султон ул-
аъзам ва Хоқон ул-мукаррам –
Шаҳаншоҳ деб тан олинган.
Ҳиндистонга юриши унинг катта
ҳарбий тажрибага эга саркарда
эканини кўрсатди. Олимлар унинг
ҳарбий санъат соҳасидаги энг йирик
икки муваффақияти – 1526 йилги
Панипат майдонида Иброҳим Лодийга
қарши ва 1527 йил содир бўлган Рона
Сангога қарши Канва шаҳридаги
жангларда сон жиҳатдан бир неча ўн
баробар устун рақибларни тор-мор
этиши Шимолий Ҳиндистон тарихида
улкан сиёсий жасорат бўлиб, уч юз
йилдан зиёд ҳукм сурган салтанатга
асос солганини алоҳида таъкид-
лайди. Деҳли шаҳрига яқин Панипат
майдонида бўлган жангда Бобур
Мирзонинг ўн икки минг аскари
бўлган. Иброҳим Лодийнинг лашқари
сони юз минг ва мингта ҳарбий фили
бўлган, деган маълумотлар бор. Бобур
Мирзо ўзининг саркардалик маҳорати,
тажрибаси билан сон жиҳатидан
бир неча баробар кўп бўлган рақиблар
устидан ғалаба қозонади. Заҳириддин
Муҳаммад Бобур ўзга юртда шоҳ
бўлса-да, бир умр ўз Ватанини қўмсаб
яшаган буюк ватанпарвар бўлган.

Бир сўз билан айтганда, у зотдаги
Ватанга муҳаббат ва садоқат ҳақиқий
ватанпарварлик намунасидир.

Ш.Р.Зоиров,
Чирчиқ ҳарбий прокурорининг
ёрдамчиси, адлия полковниги

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir va davlat arbobi sifatida jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan siymo. Uning bebaho adabiy merosi asrlar davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga, komil inson tarbiyasiga xizmat qilib kelmoqda. Navoiy ijodi bugungi kunda ham hayotimizning ajralmas qismi sifatida yuksak e'tirof etiladi.

ALISHER NAVOIYNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSASI



Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari tasarrufidagi 62608-harbiy qismda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi" mavzusida adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Tadbirida Chirchiq davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilari va talabalari, tuman axborot-kutubxona markazi mutaxassislari, "Qibray sadosi" gazetasi hodimlari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Alisher Navoiy ijodining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishdagi ahamiyati, uning boy adabiy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida ma'ruzalar qilindi. Harbiy qism komandiri Shavkat Xusanov so'zga chiqib, Navoiy merosining harbiy xizmatchilar ma'naviy kamolotidagi ahamiyatini ta'kidladi. Tadbir doirasida badiiy chiqishlar va sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tadbir yakunida qayd etilganidek, mazkur ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv yoshlar va harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MUAMMO BILAN KELIB, YECHIM BILAN KETISHDI

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosini to'laqonli ta'minlash, fuqarolar murojaatlarini joyida hal etish, shuningdek, murojaatlar sonini keskin kamaytirish maqsadida "Hududgaz Toshkent" GTF direktori J. Muhamedov tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan Toshkent viloyati, Qibray tumani aholisining turli qatlamlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kengaytirish, mavjud dolzarb muammolarni aniqlash, ularni joyida bevosita bartaraf etish maqsadida sayyor qabullar tashkil etildi. Bo'lim bosh muhandisi boshchiligidagi o'tkazilgan sayyor qabulda fuqarolar bilan birma-bir suhbatlar va muloqot jarayonida zarur omillarga oydinlik kiritildi hamda murojaatlarni keltirib chiqarayotgan sabablar o'rganilib, muhokama qilindi.

Bundan tashqari, aholi o'rtasida is gazlaridan zaharlalish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi kabi baxtsiz hodisalarni oldini olish, iste'molchilarning tabiiy gazdan oqilona va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan xolda foydalanishlarga doir choralar ko'rish hamda xonadonlardagi gaz uskunalar holatini tekshirish va xonadon egalari ulardan to'g'ri, xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan xolda foydalanishlari bo'yicha tushunchalar berildi.

1. "Beruniy" MFY, Nafis ko'chasi №3-uyda yashovchi fuqaro Kamola Ortikovaning elektron gaz hisoblagichi dasturga ko'rsatkich uzatmaganligidan norozi bo'lib, murojaat qildi.

2. "Bo'ston" MFY, Subxidan ko'chasi №19-uyda yashovchi fuqaro Samandar Ergashevning elektron gaz hisoblagichi dasturga ko'rsatkich uzatmaganligidan norozi bo'lib, murojaat qildi.

3. "Shodlik" MFY, Vatanparvar ko'chasi №16-uyda yashovchi fuqaro Gulnora Mixrosilovaning elektron gaz hisoblagichi dasturga ko'rsatkich uzatmaganligidan norozi bo'lib, murojaat qildi.

4. "Qibray" MFY, Ibrat ko'chasi №r/s-uyda yashovchi



fuqaro Zebo Sultanova tabiiy gazdan bo'lgan qarzidorlikdan norozi bo'lib, murojaat qildi.

Ushbu 3 nafar fuqarolar murojaatlari ijobiy hal etilib, belgilangan tartibda gaz hisoblagichi planshet orqali aloqasi tiklab berildi hamda quvvatlagichi (batareyka) yangisiga almashtirib berildi. Qolgan 1 nafar fuqaroning tabiiy gaz qarzidorligi bo'yicha qilgan murojaatlarini mas'ul xodimlar joyiga chiqqan holda ijobiy hal qilish choralari ko'rilishi ma'lum qilindi.

Shuningdek, fuqarolarning yashash manzilidagi mahalla aholisi murojaatlarining kelib chiqish sabab va omillari tahlil qilinib, muammolarni mahallaning o'zida bartaraf etishga qaratildi hamda sohadagi islohotlar aholiga yetkazildi. Tumangaz rahbar va mas'ul xodimlariga telefon raqamlari hamda murojaat qilish uchun ma'lumotlar berilib, muloqot jarayonida to'g'ri va asosli javoblar berildi.

Shu bilan birga aholini suyultirilgan gaz bilan ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar bartaraf etilishi natijasida tushayotgan murojaatlar sonini kamaytirishga erishildi. Qabul davomida iste'molchilardan tabiiy va suyultirilgan gazdan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etish lozimligi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, murojaatchilarga atroflicha tushuncha va tavsiyalar berib o'tildi. Sayyor qabul ishtirokchilari qabul davomida berilgan tushuntirishlardan qoniqish hosil qilib, o'z minnatdorchiligini bildirdi, o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga ham javob oldilar.

Iroda KADIROVA,

"Nazorat va murojaatlar" bo'limi yetakchi mutaxassisi

INSON HUQUQLARI – JAMIYAT TARAQQIYOTINING POYDEVORI

(Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yilligiga bag'ishlanadi)

Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish demokratik jamiyatning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishda izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yillik faoliyati ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda.

Mazkur markaz 1996-yilda tashkil etilib, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy tizimni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Uning asosiy vazifalari xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish, aholining huquqiy ongini oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida inson huquqlarini ta'minlash borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda Milliy markaz bilan bir qatorda hududiy muassasalar, jumladan, Qibray tumani Axborot-kutubxona



markazi ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Xususan, Qibray tumani Axborot-kutubxona markazida har oyning 12-sanasida "Inson huquqlari – qonun himoyasida" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar muntazam tashkil etilib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar orqali kitobxonlar, yoshlar va keng jamoatchilik vakillariga inson huquqlari, fuqarolik burchlari

hamda qonun ustuvorligi haqida muhim tushunchalar berilmoqda. Mazkur tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-46-son qarori ijrosini ta'minlash doirasida samarali amalga oshirilmoqda. Qarorda belgilangan vazifalarga muvofiq, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatda qonunga hurmat ruhini shakllantirishga alohi-

da e'tibor qaratilmoqda. Markaz tomonidan tashkil etilayotgan ushbu tadbirlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilib, ularning samaradorligini yanada oshirmoqda. Natijada, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlariga bo'lgan mas'uliyati kuchayib bormoqda. Bugungi kunda Milliy markaz BMT, YEXHT, YUNISEF kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib, O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yillik faoliyati davomida erishilgan yutuqlar, shuningdek, Qibray tumani Axborot-kutubxona markazida olib borilayotgan tizimli ishlar mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardir. Kelgusida ham ushbu ezgu ishlar izchil davom etib, huquqiy madaniyatli, ongli va mas'uliyatli jamiyatni barpo etishga xizmat qiladi.

Gulbahor TURSUNBOYEVA,
Axborot-bibliografiya bo'limi
xizmat rahbari

BOLALAR SAVODI YO'LIDAGI 35 YILLIK UMR

Jamiyat taraqqiyoti, yosh avlodning bilimli, ma'naviyatli va komil inson bo'lib kamol topishi, avvalo, ustozlar mehnati bilan chambarchas bog'liq. Chunki bolaning katta hayotga qadam qo'yishida, uning dunyoqarashi shakllanishida qo'lga qalam tutqazib, bilimga mehr uyg'otgan ustozning o'rni katta. Uning saboqlari shunchaki bilim emas, o'rgatgan har bir harfi kelajakka yo'l ochib boradi. Gazetamizning ushbu soni qahramoni ham ana shunday fidoyi ustozlardan. U tumanimizdagi 2-sonli umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Aziza To'ychiyevadir.

Qahramonimiz yoshligidan rasm chizish, ijodiy ishlar bilan shug'ullanishga qiziqqan. Dizayn va san'atga bo'lgan bu muhabbat keyinchalik uning pedagogik faoliyatida ham namoyon bo'lib, dars jarayonlarida estetik tarbiyaga alohida e'tibor qaratishida o'z ifodasini topgan. Maktabni tugatgach, u oliy ta'limga kirishga bir necha bor urinadi. Ilk urinishlar muvaffaqiyatli bo'lmaganiga qaramay, orzusi-dan voz kechmaydi. Xolasi Mirmaxsudova Zuhra opaning ko'magida maktabda ish boshlab, bir vaqtning o'zida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim uslubiyati" yo'nalishida tahsil olib, uni muvaffaqiyatli tamomlaydi.

Aziza To'ychiyeva ta'lim jarayonida interfaol metodlar, guruhli o'yinlar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanib kelmoqda. Taqdimotlar, elektron resurslar va

onlayn platformalar orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashga katta ahamiyat qaratadi. Darslari doimo jonli, mazmunli va qiziqarli o'tishi bilan ajralib turadi. Har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulotlar bolalarning mantiqiy fikrlashi, ijodkorligi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'yinli dars usullari o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Ustoz ota-onalar bilan ham doimiy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ochiq darslar, suhbatlar va yig'ilishlar orqali ota-onalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etadi. Uning fikricha, bola tarbiyasida maktab va oila hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqtidorli o'quvchilarning ota-onalarini tashakkurnomalar bilan rag'batlantirish esa ularni farzand ta'limiga yanada mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Bularning isboti sifatida shogird-



lari matematika, ingliz tili kabi fanlar bo'yicha turli tanlov va musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Shu bilan birga, ustozning o'zi ham voleybol sport turi bilan faol shug'ullanib, tuman va viloyat miqyosidagi musobaqalarda o'z jamoasi bilan sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishgan.

Boshlang'ich ta'lim tizimida bugungi kunda darsliklar yuklamasining ko'pligi, ayrim fanlarda mavzularning murakkabligi kabi qator muammolar mavjud. Ayniqsa, matematika darsliklaridagi mavzular ketma-ketligining yo'qligi o'quvchilar va ota-onalar uchun qiyin-

chilik tug'diradi. Shunga qaramay, Aziza opa kabi tajribali va sabrli ustozlar bu muammolarni mehnat, izlanish va mas'uliyat bilan yengib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, To'ychiyeva Aziza Tursunaliyevaning 35-yillik pedagogik faoliyati fidoyilik va kasbga sadoqatning yorqin namunasidir. U tarbiyalagan yuzlab shogirdlar bugun jamiyatimizning turli sohalarida samarali faoliyat yuritib, yurtimiz kelajagiga munosib hissa qo'shishmoqda. Ana shunday ustozlar bor ekan, yurtimiz kelajagi ishonchli qo'llarda, deb aytishga to'la haqlimiz.

Qibray tuman Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati shuni e'lon qiladiki, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-noyabrdagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 414-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2020-yil 19-fevraldagi "Viloyatda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 102-son qarori asosida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

ISTE'MOLCHILAR REYDDA

Iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, ichki iste'mol bozorida fuqarolar hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi past sifatli mahsulotlar hamda xizmatlarning sotilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jamoatchilik nazorati kuchaytirilib, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va holatini o'rganish yuzasidan 2026-yil davomida jamoatchilik nazorati tartibida o'rganishlar o'tkaziladi.

Mazkur qonunlar talablari asosida tashkilot yil davomida mulkchilik shaklidan qat'i nazar (davlat, nodavlat, YATT, oilaviy tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilgan subyektlar) korxona va muassasalarda monitoring, kuzatuv hamda o'rganish ishlarini olib boradi. Kamchiliklar aniqlangan taqdirda, vakolat doirasida tegishli choralar ko'rilishi eslatib o'tiladi.

Shuningdek, iste'molchilar huquqlari poymol etilgan holatlar yuzasidan fuqarolarning murojaatlari vakolat doirasida o'rganib chiqilishi ma'lum qilinadi. Qonun buzilishi holatlari bo'yicha O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasining 1091 ishonch telefoni orqali yoki ijtimoiy tarmoqlardagi murojaat platformalari orqali ariza, shikoyat hamda takliflaringizni qoldirishingiz mumkin.

Alisher YULDASHEV,
Qibray tuman iste'molchilar huquqlarini
himoya qilish jamiyati raisi

Tumanimizda sportga mehr qo'ygan, g'alaba sari qat'iyat bilan intilayotgan yoshlar safi yil sayin kengayib bormoqda. Ularning yutuqlari nafaqat ota-onalari, balki butun tumanimiz uchun faxr manbai. Ana shunday iqtidorli yosh sportchilar safida Damira Kasimaliyeva va Nurdavlat Mirzadiyrovni alohida e'tirof etish mumkin.

QIBRAYDAN XALQARO MAYDONLAR SARI

Damira Kasimaliyeva 12 yoshda bo'lib, Qibray tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-"A" sinfida tahsil oladi. U 7 yoshidan buyon dzyudo sporti bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Maktabdagi sambo to'garagi orqali sportga qiziqishi kuchaygan Damira otasining qo'llab-quvvatlashi bilan ushbu yo'nalishda katta yutuqlarga erisha boshladi. Yosh sportchi Qozog'iston va Qirg'izistonda o'tkazilgan xalqaro musobaqalar, shuningdek, respublika miqyosidagi turnirlarda munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan.

Nurdavlat 8 yoshidan buyon dzyudo bilan shug'ullanib kelmoqda. Otasi va bobosining doimiy yo'l-yo'riqlari, maslahatlari Nurdavlatning sportda o'z yo'lini topishiga sabab bo'ldi. Sportchimiz Qozog'istonning Astana shahrida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritib, katta yutuqqa erishdi. Shuningdek, u Toshkent viloyati hokimi kubogida 2-o'rinni egallab, o'z iqtidorini yana bir bor namoyon etdi.



Ikki sportchi har kuni Ges-Qodiriya, Do'rmon va Chinobod hududlarida joylashgan "AsilbekovS TEAM" sport zalida murabbiy Nurbek Asilbekov rahbarligida mashg'ulot olib bormoqda. Mashqlar ba'zan jismonan og'ir kechishiga qaramay, ular sabr, matonat va iroda bilan olg'a intilishdan to'xtamaydi.

Damira kelajakda professional sportchi bo'lib yetishish va shu bilan birga murabbiy sifatida yosh avlodni tarbiyalash niyatida. Nurdavlat esa xalqaro sport ustasi bo'lib, Vatanimiz bayrog'ini Olimpiada o'yinlari va jahon chempionatlarida baland ko'tarishni o'z oldiga maqsad qilgan.

Damira va Nurdavlat kabi intilishli, irodali yoshlar Qibray yoshlari uchun haqiqiy ibrat maktabi bo'lib, sport orqali oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil qadam tashlab, ertangi chempionlarimiz safidan munosib o'rin egallashlariga ishonch bildiramiz.

Dilshoda MIRZOLIMOVA

IJTIMOYIY TARMOQLAR DAVRIDA MA'NAVIY IMMUNITET MASALASI

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotiga chuqur kirib bordi. Aholining deyarli barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlar kundalik hayotida internet platformalaridan faol foydalanmoqda. Axborot tez tarqalayotgan bugungi davrda bu jarayon katta imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy ma'naviy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois jamiyatda ma'naviy immunitetni shakllantirish masalasi har qachongidan ham dolzarbdir.



Ijtimoiy tarmoqlar orqali foydali bilimlar, yangiliklar va tarbiyaviy materiallar tarqalayotgani quvonarli hol. Ammo shu bilan birga, yolg'on axborotlar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi lavhalar, milliy qadriyatlarga zid qarashlar va turli zararli g'oyalar ham keng yoyilmoqda. Ayniqsa, hali hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlar bunday ta'sirlarga tez berilib ketishi mumkin.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, inson ongi-ga muntazam ravishda salbiy axborot kirib borishi befarqlik, asabiylik va ijtimoiy mas'uliyatning susayishiga olib keladi. Ba'zi hollarda esa bu turli huquqbuzarliklar va nosog'lom turmush tarzining shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham ma'naviy immunitet — ya'ni insonning zararli axborotlarga nisbatan ongli qarshilik ko'rsatish qobiliyatini

rivojlantirish bugungi tarbiyaning muhim yo'nalishiga aylanishi zarur.

Bu borada oila tarbiyasi birinchi o'rinda turadi. Ota-onalar farzandlarining internetdan qanday foydalanayotganiga befarq bo'lmasdan, ularni nazorat qilish bilan birga tushuntirish ishlarini ham olib borishlari lozim. Taqiq-lashdan ko'ra, ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish samaraliroqdir. Farzand bilan ochiq muloqot, birgalikda kitob o'qish va ma'naviy mavzulardagi suhbatlar bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim muassasalarida ham axborot savodxonligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni kengaytirish zarur. O'quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga, axborotni tahlil qilishga o'rgatish orqali ularni turli yolg'on va zararli g'oyalardan himoyalash mumkin. Shu bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchra-shuvlar va davra suhbatlari yoshlar ongida sog'lom qarashlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahalla institutining bu boradagi o'ri ham beqiyosdir. Mahalla faollari, nuroniylar va mutaxassislar ishtirokida o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam bermoqda. Sport, san'at va kitobxonlikka yo'naltirilgan loyihalar esa virtual muhitga haddan tashqari berilib ketishning oldini olmoqda.

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning o'zida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ma'naviyat, tarix, ilm-fan va tarbiya mavzulariga bag'ishlangan sahifalar ko'payib, yoshlar uchun foydali kontentlar yaratilmoqda. Bu esa raqamli makonni ham ma'naviyat targ'iboti maydoniga aylantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarni dushman sifatida ko'rish emas, balki undan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish eng to'g'ri yo'ldir. Kuchli ma'naviy immunitetga ega bo'lgan shaxs har qanday axborotni tanlab qabul qila oladi, zararli ta'sirlarga berilmaydi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi. Shu bois barcha soha vakillari — oila, maktab, mahalla va jamoatchilik birgalikda harakat qilgan holda yosh avlodning ma'naviy himoyasini mustahkamlashi zarur.

J.R. KARIMOV,

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Qibray tuman bo'linmasi rahbari*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGIDA QANDAY YANGILIKLAR?

“O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to'g'risida”gi Qonun (30.07.2025-y., O'RQ-1076-son) qanday huquqiy yangiliklarni olib keldi?

Ushbu yangi Kodeks O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni yagona tizimda tartibga soldi. Avval amalda bo'lgan qonunlar parchalangan va turli sohalarga taqsimlangan edi. Endi suvdan foydalanish huquqi va majburiyatlari yagona hujjatda jamlandi; davlat suv fondi tushunchasi huquqiy mustahkamlandi; suv resurslaridan foydalanishda “barqaror rivojlanish” tamoyili qonuniy kuchga ega bo'ldi; suvni tejash, qayta ishlatish va ifloslantirganlik uchun javobgarlik aniq belgilandi; xalqaro suv resurslaridan foydalanish normalari O'zbekiston qonunchiligiga uyg'unlashtirildi. Amaliy jihatdan bu kodeks suv xo'jaligi tashkilotlari, fermerlar va sanoat korxonalari uchun huquqiy aniqlik keltiradi. Fuqarolar uchun esa ichimlik suvi ta'minoti, ekologik xavfsizlik va sog'lom turmush tarziga oid huquqiy kafolatlar mustahkamlanadi.

D. MATRASULOV,

Qibray tumani adliya bo'limi boshlig'i

“O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qonun (31.07.2025-y., O'RQ-1078-son)ning maqsadi nimada?

Bu qonun Suv kodeksini qabul qilish bilan bog'liq holda boshqa qonunlarga moslashtiruvchi o'zgartirishlarni kiritadi. Chunki yangi kodeks suvga oid ko'plab tushunchalarni yangidan ta'riflab berdi. Shunga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga suvdan noqonuniy foydalanish, ifloslantirish, noqonuniy qurilishlar uchun jarimalar qayta belgilandi; Jinoyat kodeksiga suv resurslariga zarar yetkazish bo'yicha sanksiyalar kuchaytirildi; Ekologiya va suv xo'jaligi organlari vakolatlari kengaytirildi; Davlat ekologik ekspertizasida suv loyihalari majburiy tarzda ko'rib chiqilishi qonuniylashtirildi.

Huquqiy ahamiyati shundaki, Suv kodeksi faqat umumiy qoidalarini belgilab qolmasdan, boshqa qonunlarda ham bir xilda ishlashi uchun “moslashtiruvchi” qonun qabul qilindi. Bu —

huquqiy tizimni yaxlit, qarama-qarshiliksiz qilishning zaruriy sharti.

A. O'ROQOV,

*Qibray tumani adliya bo'limi
bosh maslahatchisi*

Iste'molchilarning huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilish bo'yicha qonunchilikda qanday yangiliklar bo'ldi?

31.07.2025-yildagi O'RQ-1078-son Qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Qonun hujjatlariga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, sotuvchilarni oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga undaydigan normalar belgilandi. Xususan, sotuvchi oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan muddatda tovarni topshirish bo'yicha majburiyatini bajarmaganda, kechiktirilgan har bir vaqt birligi uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida iste'molchiga penya to'lashi ko'zda tutildi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi topshirilmagan tovar bahosidan oshib ketmasligi kerak. Shuningdek, qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, barcha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda faqat yodlangan tuzdan foydalanilishi belgilandi.

A. ALIYEV,

*Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti*

Yer qa'ridan foydalanish qoidalarini buzganlik haqida xabar bergan fuqarolar qanday rag'batlantiriladi?

— Hukumat qaroriga ko'ra, fuqarolar noqonuniy qazib olish yoki boshqa huquqbuzarliklarni videoyozuv orqali qayd etib, “Geomonitoring” tizimi orqali inspeksiyaga yuborgan taqdirda pul mukofoti oladilar: noruda foydali qazilmalar bo'yicha — BHMning 1 baravari, boshqa huquqbuzarliklarda esa jarima summasining 5 foizi miqdorida.

F. MUSURMONOVA,

*Davlat xizmatlari markazi
katta mutaxassisi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalar qatorida mahallalar infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlantirish, ularga “Yangi O'zbekiston” ruhi va qiyofasini singdirish masalasi alohida strategik yo'nalish sifatida belgilangan.

MAHALLA INFRASTRUKTURASI YANGILANMOQDA



“Sohibkor” mahallasida Murojaatda belgilangan, mahalla infratuzilmasini yaxshilash borasidagi vazifalarni bajarish ishlari boshlab yuborildi. Aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida uchta 400 kilovattli transformator o'rnatildi. “Ifor” ko'chasida ikki kilometr masofada eski elektr tarmoqlari yer osti kabellariga almashtirildi. “Ifor” va “Zardo'zlar” ko'chalarida jami 63 ta eski simyog'och o'rniga zamonaviy yoritgichlar bilan jihozlangan metall tayanchlar o'rnatilib, zamonaviy yoritish tizimi joriy qilindi.

Yo'l infratuzilmasini yaxshilash maqsadida mahallaning olti ko'chasiga jami 1040 metr asfalt yotqizildi. Mahalla markazidagi “Ifor” ko'chasi 1,8 kilometr masofada va 7 metr kenglikda qayta tamirlandi. “Hikmat”, “Charos”, “Totuvlik”, “Sayqal” va “Bo'z-suv-2” ko'chalari ham asfalt bilan qoplandi. Piyodalar harakatini yaxshilash uchun “Ifor” va “Nav-

qiron” ko'chalarida 1400 metr masofada bruschatka yotqizildi. “Olmazor” ko'chasida 780 metr masofaga shag'al to'shaldi.

Yomg'ir va qor suvlarini chiqarish tizimini yaxshilash maqsadida “Ifor” va “Hikmat” ko'chalarida 1280 metr latok o'rnatilib, “Gul-sanam” va “Baynalmilal” ko'chalarida diametri 200 millimetrlar bo'lgan 460 metr oqova suv quvurlari yangilandi. Mahalla hududidan o'tuvchi “Bo'z-suv” kanali ustida 1947-yilda qurilgan, avariya holatida bo'lgan ko'priklar buzilib, uning o'rniga uzunligi 46 metr, eni 6,40 metr bo'lgan yangi ko'priklar barpo etildi.

Ushbu ishlarni byudjet mablag'lari, homiylar yordami hamda mahalla aholisi tomonidan uyushtirilgan hashar orqali amalga oshirildi.

Baxtiyor USMONOV,

*Qibray tuman
Kengashi deputati*

Gadget qo'lda olib yursa bo'ladigan texnologik qurilma. U odatda bir yoki bir necha funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan bo'ladi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 93 foizi haftada 28 soat yoki kuniga taxminan 4 soat vaqtini ekran qarshisida o'tkazadi. Ota-onalar uchun farzandini multfilm, video o'yinlar, smartfonlar bilan chalg'itish ancha qulay. Ammo, bola bu vaqtda tashqi dunyodan uzilib qoladi. Bu esa uning ruhiy salomatligiga putur yetkazishi mumkin. Bolaning nutqiy rivojlanish davrida gadgetlarga qaram bo'lib qolishi oqibatida nutq faoliyatida nuqsonlar vujudga keladi.

GADJETLAR VA ULARNI ZARARLI OQIBATLARI

Bugungi kunda dunyo bo'yicha 4 yoshli bolalarning 25 foizida nutqiy nuqsonlar kuzatilmoqda. Bundan 40 yil avval bu ko'rsatkich to'rt foizni tashkil qilgan. Uzoq vaqt davomida mobil qurilmalardan foydalanish muskullar gipotrofiyasi, ko'zning qurib qolishi va uzoqni ko'rolmaslik kabi bir qancha jiddiy muammolarga sabab bo'ladi. Gap shundaki, telefon yoki kompyuter ekraniga uzoq va davomiy tikilib turish oqibatida odamlar ko'zini odatdagidan besh barobar kamroq pikipiradi. Bu esa ko'zning old yuqori qismi quruqlashishiga olib keladi. Mutaxassislar fikricha, gadgetlardan uzoq vaqt davomida foydalanish shabko'rlik muammosini keltirib chiqaradi. Smartfonlar va boshqa gadgetlarda bo'ladigan radiochastota nurlanishi inson tanasining to'qimalariga singib ketadi va uning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. "SM-Klinika" shifokori-nevrologi Mariya Ignatova "Praym" agentligiga gadgetlar yonida uxlashning xavfli jihati va smartfonidan bir daqiqaga ajralmaganlarning sog'lig'iga qanday zarar etishini gapirib berdi. "Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, smartfonlardan tarqaladigan radiochastota nurlanishi bepustlik, saron, nevrologik va ruhiy kasalliklar xavfini oshiradi", — dedi shifokor.

Bolalar, homilador ayollar, yurak-qon tomir, asab va immun tizimlari buzilgan odamlar elektromagnit radiochastota maydonlariga juda sezuvchan bo'lishadi. Qorong'ida smartfonlardan foydalanish kattalar va bolalar salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. "Telefon ekranining ko'k chiroqlari ko'zlarga, biologik ritmlarga salbiy ta'sir qiladi, uyqusizlik, bosh og'rig'iga sabab bo'ladi, ishlashning pasayishi, xotiraning zaiflashishi va degenerativ ko'z kasalliklari paydo bo'lishiga olib keladi", — deb izohladi mutaxassis. Uning qo'shimcha qilishicha, smartfonga qaram bo'lganlar uni elektr tarmog'iga ulamasdan, uxlash va dam olish joyidan yetarlicha masofada saqlashlari kerak.

S.AXMEDOVA,

*Salomatlik va strategik rivojlanish instituti
hududiy bo'lim shifokori*

EKSPORT-IMPORT JARAYONLARINING SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH YO'LIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH



O'simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati boshqarmasida tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar, inspektorlar uchun navbatdagi huquqiy-profilaktik suhbat o'tkazildi.

Agentlikning Komplayens nazorati bo'limi mutaxassislari, viloyat prokuraturasi vakillari tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish borasida milliy qonunchiligimiz, tizimda qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarning mazmun-mohiyati va talablari ishtirokchilarga yetkazildi.

O'simliklar karantini va himoyasi agentligining korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha nizom, korruptsiyaviy xavf-xatlarni baholash kabi bir qator mavzularda tushunchalar berildi.

Maqsad — o'simliklar karantini va himoyasi sohasida, tashqi iqtisodiy faoliyat bo'xona postlarida va chegara maskanlarida eksport-import jarayonlarining shaffoqligini ta'minlash, eksportyor korxonalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar bilan amaldagi normativ-huquqiy talablar asosida ish olib

borishdir.

Shuningdek, ochiq muloqot ishtirokchilariga Agentlik tizimida korruptsiya holatlarini oldini olish maqsadida aloqa kanallari yo'lga qo'yilgani to'g'risida ma'lumot berildi. Xususan, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimida xodimlar tomonidan turli qoidabuzarliklar, noqonuniy va korruptsion holatlar haqida xabar berish uchun ishonch telefoni, rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi manzillarga murojaat qilish mumkinligi aytiladi.

**A.AGZAMOV,
SH.KAMBARALIYEV,
B. XAMIDULLAYEV,**

*O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va
himoyasi agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi.
Keles TIF inspektorlari*

QUTURISH KASALLIGIDAN SAQLANING

Quturish — yuqumli kasallik bo'lib, asosan markaziy va orqa miya asab tolalarini zararlantiradi. Bu kasallik bilan uy hayvonlari (it, sigir, ot, eshak, mushuk) hamda yirtqich hayvonlar (bo'ri, tulki, chiyabo'ri) kasallanadi. Bu borada yuqorida nomlari keltirib o'tilgan yirtqich hayvonlar o'ta xavfli hisoblanadi, chunki bular quturish kasalligini qo'zg'atuvchi viruslarini tabiiy sharoitda o'z organizmida saqlaydi.

Quturish kasalligini qo'zg'atuvchi virusi uy hamda yovvoyi yirtqich hayvonlarning so'lak bezlarida ko'payadi va saqlanadi. Bu o'ta xavfli kasallik quturgan hayvonlarning odamlarga bexosdan tashlanib tishlashi, erkanlab inson badanining ochiq yerlariga o'z so'laklarini tomizishi va badanga tirnoqlari bilan jarohat yetkazishi natijasida yuqitiradi. Kasallik yuqqach, uning asosiy belgilari 3-7 hafta uzog'i bilan 1 yil orasida namoyon bo'ladi: dastlab tishlangan joyda jimirlashga o'xshash noxushlik vujudga kelsa, keyinchalik o'sha joyda atrofi qichisha boshlaydi

yara atrofi yallig'lanadi. Bemor uyquda bezovtalanadi, alahlaydi, besabab qo'rquvga tushadi, vahimali tushlar ko'radi, badan harorati me'yordan ortib ketadi. Keyinchalik yuqorida aytib o'tilgan belgilar surunkali tus oladi. Kishida kuchli chanqoqlik paydo bo'ladi. Shu paytda bemorga bir piyola choy yoki suv uzatilsa, u suyuqlikni o'ta ochko'zlik bilan og'ziga olib boradi, ho'playdi, ammo shu daqiqaning o'zida chinqirib suyuqlik solib berilgan idishni uloqtirib yuboradi.

Bu — "suvdan qo'rqish davri" deb ataladi. Xuddi shu davrda mayin esgan shabboda

bemor yuziga yoki badaniga tegishi bilan u og'irlashib changak bo'lib qoladi. Bu davr "havodan qo'rqish" davridir. Bemor nafas olish va yurak-qon tomirlari markazlarining falajlanishi tufayli fojiali ahvolga tushadi. Quturish kasalligi belgilari boshlangandan so'ng uni davolab bo'lmaydi. Modomiki shunday ekan, shifokorlar tili bilan aytganda har qanday kasallikni davolashdan ko'ra uni oldini olish qulaydir.

Agar veterinariya nazoratiga Siz topshirgan hayvon 10 kun mobaynida tirik qolib, quturish bilan kasallanmagan bo'lsa, tibbiy xodimlar Sizni to'liq emlash kursidan ozod etishadi.

Emlatish punktlari tuman tibbiyot birlashmasining jarrohlik bo'limida muntazam ish olib boradi.

Uydagi it va mushuklarni veterinariya ko'rigidan tez-tez o'tkazib turish kerak. Bejirim kuchukchalarni yoki zotli itlarni ko'chada, jamoatchilik dam oluvchi parklarda,

maydonlarda umumiy foydalanishdagi transport vositalarida ularni bog'langan xolda og'izlariga burundiq kiydirib olib borishga ruxsat etiladi.

Shu shartlarga rioya qilgandagina biz o'zimizni, farzandlarimizni hamda atrof-dagilarni quturish kasalligidan muhofaza qilamiz.

Tibbiy muassasalar xodimlari, veterinariya xodimlari, keng jamoatchilik quturish kasalligini oldini olish uchun doimo kurashmogi lozim. Ana shundagina bunday muhish kasallikning aholi o'rtasida tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi.

M.DJAVXAROVA,
*Toshkent viloyat SEB
Qibray tuman bo'limi vrach
epidemiologi*

A. AHMEDOV,
*Qibray tuman veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i*

ILM, AXLOQ VA IJOD UYG'UNLIGI

Toshkent davlat agrar universitetida insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan HECI konsepsiyasi asosidagi o'quv qo'llanma taqdimoti bo'lib o'tdi.



Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Toshkent davlat agrar universiteti hamkorligida tashkil etildi. Unda agrar va oziq-ovqat sohasi xodimlari, pedagoglar hamda yoshlar ishtirok etdi.

Taqdimotda "Insoniylik, axloq, ijodkorlik, tasavvur (HECI) yondashuvlari" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuni va ahamiyati haqida so'z yuritildi. Ushbu qo'llanma zamonaviy ta'lim talablari asosida shaxsni nafaqat bilimli, balki insonparvar, mas'uliyatli, ijodiy fikrlovchi va keng tasavvurga ega etib shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, real hayotiy misollar hamda samarali metodik tavsiyalar jamlangan.

Toshkent davlat agrar universiteti rektori N. Oblomurov taqdimotda so'zga chiqib, HECI yondashuvlari agrar ta'limda inson kapitalini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi kotibiyat boshlig'i Sh. Ergashev esa Gerd Leonhardning "Inson yaratuvchan zot. Uning axloqi va ijodkorligi – texnologiyadan ajralib turadigan eng muhim xususiyatidir" degan fikrini keltirib, HECI tamoyillarining dolzarbligiga e'tibor qaratdi.

Ta'kidlanishicha, HECI yondashuvlarini qishloq xo'jaligi ta'limiga joriy etish orqali bojxona to'siqlari, mahsulot sifatining buzilishi, texnikalardan

foydalanishdagi kamchiliklar, seleksiya jarayonidagi muammolar, hisobotlarda sun'iy oshirish holatlari hamda dehqonchilikdagi adolatsizliklarning oldi olinadi.

Shuningdek, mazkur tizim mineral o'g'itlar va pestitsidlardan me'yorida ortiq foydalanish, suv resurslaridan no'rin foydalanish, tuproq unumdorligiga e'tiborsizlik, ishchi kuchiga nisbatan mas'uliyatsizlik, zararkunandalarga qarshi kurashdagi noto'g'ri usullar va veterinariya nazoratidagi bo'shliqlar kabi muammolarga yechim topishga xizmat qiladi.

HECI tizimini joriy etish ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqichda Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi 9 ta oliy ta'lim muassasasidan 50 nafarga yaqin trener-o'qituvchilar uchun to'rt kunlik maxsus o'quv kursi tashkil etildi.

Mashg'ulotlar davomida inson kapitalini shakllantirishda axloqiy tamoyillar, ijodiy va tanqidiy fikrlash, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda tasavvur salohiyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ikkinchi bosqichda ushbu kurslarda tahsil olgan professor-o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini talabalarga tatbiq etishi rejalashtirilgan. Mazkur yondashuvlar agrar oliy ta'lim muassasalarida 2026–2027-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich joriy etiladi.

HECI konsepsiyasining tatbiq etilishi qishloq xo'jaligi ta'limi sifatini oshirish, malakali va mas'uliyatli mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dilshoda MIRZOLIMOVA,
Toshkent davlat agrar universiteti 1-kurs magistri



BUYUK MUTAFAKKIR XOTIRASI HARBIY XIZMATCHILAR BILAN BIRGA YOD ETILDI

Tumanimizda joylashgan, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarning birida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, Toshkent viloyati Jurnalistlar uyushmasi raisi hamda Qibray tumani "Nuroni" jamg'armasi raisi Rahmatilla Sheraliyev, shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qibray tuman bo'limi rahbari Jamshid Karimov ishtirok etdilar.

Tadbir davomida Alisher Navoiyning boy adabiy merosi, uning yoshlar tarbiyasidagi o'рни, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida atroflicha fikr almashildi. Uchrashuv harbiy xizmatchilar uchun mazmunli va ruhiy-ma'naviy jihatdan boy tadbir sifatida o'tdi.

Ma'murjon RAHMONOV,
DXX ChQ 2-darajali serjanti

CHAQIRILUVCHILAR DIQQATIGA!!!

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir!

Bosh Qomusimizning 64-moddasida qayd etilgan ushbu satrlar zahirida xalqimizning tinch- osuda hayoti yotadi. Zero, ko'p millatli aholimizning bir oila farzandlaridek inoq-ittifoqlikda, o'zaro ahillikda, bir-birlarining urf-odat va an'alariga hurmat bilan munosabatda yashashlari bizning amaldagi qonunlar ijrosiga ne chog'li e'tiborli bo'layotganligimiz natijasidir. Bugungi globallashuv jarayonlarida esa, xalqimiz tomonidan ko'z qorachig'idek asrab kelinayotgan ushbu qadriyatlarga tashqi ta'sirlar ham yo'q emas.

Shuning uchun ham fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlidirlar, – deyiladi konstitutsiyamizning yuqorida qayd etilgan bandi davomida.

Ushbu muhim qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008- yil 20 - noyabrda PQ-4054-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi" nizom va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 - yil 7- iyuldagi "Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VM-413-son qarorlari qabul qilingan. Mazkur hujjatlarga muvofiq, navbatdagi 2026 - yilgi chaqiruv mavsumiga Qibray tumani hududida doimiy ro'yxatda

turuvchi 1999 – 2008 - yillarda tug'ilgan, chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga ega bo'lmagan fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatini o'tash uchun 2025- yil 10- avgust kundan boshlab 2026 -yil 10- fevral kunga qadar tanlovda qatnashishlarini so'raymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil apreldagi PQ-2867-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga oliy o'quv yurtlariga o'qishga topshirishlari uchun to'plagan baliga qo'shimcha 50 % miqdorda tavsiyanoma berilishi ma'lum qilingan.

Sizlarni 2026 - yilda muddatli harbiy xizmatga borish uchun chaqiriluvchilar o'rtasida o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etishga taklif etamiz, hamda muddatli harbiy xizmat bepul ekanligini ma'lum qilamiz.

Manzilimiz:
Qibray tumani A. Navoiy ko'chasi, 72-uy.
Telefon: +99871 502 80 82.
QIBRAY TUMANI MUDOFAA ISHLARI BO'LIMI MA'MURIYATI

MUASSISLAR:

Qibray tumani hokimligi va "Qibray sadosi" gazetasi mehnat jamoasi.



Tahrir hay'ati:
Muzaffar RASHIDOV,
Qibray tuman hokimi
(Tahririyat raisi)

Abduhamid FOZILOV,
Mehnat fahriysi,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Baxtiyor MAXMADALIYEV,
Xalq deputatlari
Qibray tuman
Kengashi raisi

Rahmatilla SHERALIYEV,
Qibray tuman "Nuroni" jamg'armasi raisi

Gulnora AHMEDOVA,
Xalq deputatlari
Toshkent viloyati
Kengashi deputati

Bosh muharrir:
Abbos QAHHOROV
Tel: +99850-878-81-90

Mas'ul kotib:
Asrorbek TO'RAYEV
Tel: +99888-120-97-77

Toshkent viloyati
Matbuot va axborot boshqarmasida
2012-yil 25-iyunda
03-017 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Qog'oz bichimi - A 3.
Hajmi - 2 bosma taboq.

Obuna indeksi – 296
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Gazeta obuna yo'li bilan tarqatiladi.
(t) – tijorat va reklama materiallari.

Bosishga topshirish vaqti: **10:00**
Topshirildi: **09:00**

TAHRIRIYAT MANZILI:
111200,
Qibray shaharchasi, Zebunniso ko'chasi, 12.

Gazeta
«AZMIR NASHR PRINT» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Oqilon MFY, Ko'kcha Darvoza ko'chasi, 8a-uy.

Adadi 2220.
B. № 336

Navbatchi:
Dilshoda Mirzolimova

Sahifalovchi-dizayner:
Nurlan Tursunbayev